

ERKIN IQTISODIY IQTISODIY ZONLARNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Faxriddin Kaxorov, Lola Kodirova, Akmal Kuchkarov
TDIU SMMT-77 guruh talabalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalar mexanizmini tubdan qayta qurish, xorijiy investitsiyalarni mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etish borasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi nufuzini yanada mustahkamlash, xorijiy sarmoyador va tadbirkor-ishbilarmonlar bilan iqtisodiy integratsiyaning samaradorligini oshirish uchun erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston iqtisodiyotining jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyalashuvi sharoitida mamlakatimizda eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy rivojlanish siyosatini amalga oshirish va eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarib xorijga eksport qilish va shuningdek import o'rnini bosuvchi yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni joriy qilishda erkin iqtisodiy zonalardan foydalanish, shuningdek, mamlakatimizda "ochiq eshiklar siyosatini" amalga oshirish hamda xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilish borasida rivojlangan davlatlarning, ayniqsa, jahon xo'jaligida tezkor sur'atlarda rivojlangan mamlakatlarning, jumladan, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Turkiya, Xitoy kabi mamlakatlarning tashqi savdo-sotiq siyosati tajribalaridan unumli foydalanish milliy iqtisodiyotimizning taraqqiyotiga ijobiy samara beradi.

Shunga ko'ra, milliy iqtisodiyotni shakllantirishda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish orqali mamlakatning tashqi savdo-sotiq jarayonini va eksport salohiyatini yuksaltirish masalasi, mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos jihatlarini hisobga olishni, ayniqsa, jahon iqtisodiyoti amaliyotida to'plangan tajribalar va xalqaro qonun-qoidalar asosida mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilish borasida va ularni tartibga solish usullarini yanada takomillashtirish zarurligini talab etadi. Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishda va undagi faoliyatlarni samarali olib borishda xorij mamlakatlarining tajribalaridan va ularning usullaridan unumli foydalanish hozirgi kunning muhim masalalaridan biri hisoblanib mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek "Biz iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobiy natijaga erishish mumkin.

Bu borada erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida biznes sub'ektlarini joylashtirish, ularga imtiyoz va preferentsiyalar berishni tashkiliy va huquqiy jihatdan tartibga solish lozim"¹.

Keyingi yillarda mamlakatimizda erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini vujudga keltirish, jumladan ularning faoliyatini tartibga soluvchi mustahkam normativ-huquqiy bazani shakllantirish, erkin iqtisodiy va sanoat zonalarini rivojlantirishga xorijiy hamda mahalliy investitsiyalarni jalb etish imkonini beradigan soliq, bojxona imtiyozlari va engilliklarining keng tizimini yaratish borasida aniq maqsadga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etishda jiddiy kamchilik va nuqsonlar mavjudki, ular shunday zonalarini rivojlantirishga va samarali faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilmoqda. Masalan:

birinchidan, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini hududlarida joylashtirish uchun loyihalarni tanlashning aniq mezonlari mavjud emas. Investitsiya loyihalarini ko'rib chiqishda yangidan tashkil etilayotgan ish o'rinlari soni, salohiyatli xorijiy sherik va investor-mamlakatning mavjudligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ichki va tashqi bozorlarda talab qilinishi, eksport hajmi, shuningdek, ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish darajasi hisobga olinmayapti;

ikkinchidan, erkin iqtisodiy zonalar hududida joylashtirish va amalga oshirish uchun taklif etilayotgan investitsiya loyihalarini kelishib olish va ma'qullash mexanizmi amalda haddan tashqari murakkab byurokratizmga uchragan, bu esa mazkur loyihalar bo'yicha qarorlar qabul qilishni qo'p oylarga cho'zib yubormoqda;

uchinchidan, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini uchun zarur muhandislik-kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasini o'z vaqtida barpo etish masalalariga etarlicha e'tibor berilmayapti;

to'rtinchidan, taklif etilayotgan investitsiya loyihalarining ishonchli moliyaviy manbalar, shu jumladan, mahalliy va xorijiy kredit resurslari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga ishonchli ta'minlanishi mufassal ishlab chiqilmagan. Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalariga birlashtirilgan tijorat banklari ushbu muammolarni hal etishda sust ishtirok etmoqdalar;

beshinchidan, erkin iqtisodiy zonalarining ishtirokchilari Respublika tovar-xomashyo birjasi orqali sotiladigan xomashyo resurslarini zarur hajmda sotib olishda kattagina qiyinchiliklarga duch kelmoqda;

oltinchidan, erkin iqtisodiy zonalarining hududida foydalanishga topshirilgan korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan nihoyatda samarasiz foydalanilmoqda,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://www.uza.uz>. 28.12.2018 y.

buning oqibatida ishlab chiqarish va eksport hajmlari hamda ish joylari soni tasdiqlangan biznes-rejalarni parametrlariga muvofiq kelmaydi;

Mana shularning hammasi erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini faoliyatini rivojlantirishdagi mavjud muammolarni o'rganish va hal etishni taqozo etadi. Bugungi kunda zamon taraqqiyot etayotgan bir vaqtda davlatlar ertangi kelajagi va bugunini o'ylab turli xil ishlar olib boradi. Bunga sabab davlatlarning rivojlanishi, o'sib kelayotgan yosh avlodni ertangi kelajagi uchun ularni ish bilan ta'minlash maqsadida mahalliy va xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilib o'zi bosh islohdachi bo'lib turli xil sohalarga moslashgan faoliyat olib borishga harakat qiladi. Shulardan misol tariqasida erkin iqtisodiy zonalaridir. Erkin iqtisodiy zona – davlatlararo kelishuvlarga yoki maxsus qonunlarga muvofiq, xo'jalik va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun imtiyozli soliq, moliya, bojxona va erkin valyuta konvertatsiya, huquqiy sharoitlar joriy qilanadigan joydir. Xorijiy va mahalliy tadbirkorlarni jalb etish maqsadlarida tashkil etiladi va ularda zarur ishlab chiqarish va ish yuritish infratuzilmasi barpo etiladi. Erkin iqtisodiy zonalar ko'p hollarda davlatlararo tutash hududlarda (bir necha davlatlarning chegaralari tutashgan hudud), xalqaro aeroportlar, port shaharlarda (Masalan Malayziya yoki Janubiy Koreya) yoki transport yollari tutashgan hududlarda (Buyuk ipak yo'li o'tgan davlatlar yoki Yevropa ittifoqi hududlari).

Erkin iqtisodiy zonalarida alohida xalqaro huquqiy status joriy qilinadi. Lekin u qayerda joylashishidan qat'iy nazar, shu mamlakatning ajralmas bo'lagi hisoblanadi, barcha amaliyotlar (yer ajratish firma va kompaniyalarni tashkil etish, chegaradan yuklarni, tovarlarni olib kirish va olib chiqish). Xorijiy va mahalliy tadbirkorlarni jalb etish maqsadlarida tashkil etiladi va ularda zarur ishlab chiqarish va ish yuritish infratuzilmasi barpo etiladi. Erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishdan maqsad ko'plab yangi texnologiya, investitsiyalarni jalb qilib, rivojlangan iqtisodiy makon yaratish va shu yo'l bilan mamlakat iqtisodiyotini tezkorlik bilan rivojlantirishdir.

Erkin iqtisodiy zonalarining har xil turlari mavjud: erkin omborxonalar, erkin bojxona zonalarini, ilmiy texnika zonalarini. Misol uchun ular AQShda texnoparklar, Yaponiyada texnopolislar deb ataladi. Shuningdek, erkin iqtisodiy zonalar (asosan, eksportga ixtisoslashgan) ham mavjud. Dastlabki, erkin iqtisodiy zonalaridan biri Irlandiyada "Shannon" aeroportida (1959) tashkil etilgan. Keyinroq shunday zona Angliyadagi "DogAylend" aeroportida paydo bo'ldi.

Ba'zi erkin iqtisodiy zonalar ancha yirik hududlarda tashkil etiladi. Masalan, Braziliyadagi Manaus, Xitoydagi maxsus iqtisodiy hudud "Shenjen" va boshqalar shunday zonalaridir. Jahon amaliyotida Erkin iqtisodiy zonalar rivojlangan (Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya, AQSH va boshqalar), shuningdek, rivojlanayotgan (Braziliya, Koreya Respublikasi, Malayziya va boshqalar) mamlakatlarida ham tashkil etildi. Erkin iqtisodiy zonalarga chet el kapitalini jalb

qilish Xitoy siyosatida ancha keng qoʻllanildi. 20-asr oxirlarida erkin iqtisodiy zonalar Birlashgan Arab amirliklari, Rossiya va Polshada tashkil etildi. Rossiya va Xitoy hamkorligida tashkil etilgan Blyagovanichensk — Xeyxe, Qora dengiz boʻyi, Kaliningrad viloyatidagi "Yantar" erkin iqtisodiy zonalari ham shunday makonlardir.

Oʻzbekistonda erkin iqtisodiy zonalar gʻoyasi milliy iqtisodiyot taraqqiyoti uchun ijobiy baholandi. Shu bois 1996 yilning 25 aprelda mamlakat parlamenti Oʻzbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy zonalar toʻgʻrisida" qonunini qabul qildi. Bu qonun chet el investitsiyalari, savdo va sanoat sohalarining rivojlanishi, Bu esa aholini ish bilan taʼminlashni yaxshilash uchun qulay sharoit yaratishga meʼyoriy huquqiy asos yaratildi.

Erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilishda ikkita konseptual yondoshish qoʻllaniladi: hududiy va funkstional (nuqtali). Birinchi holatda hududdagi barcha rezident korxonalar xoʻjalik faoliyatida imtiyozlardan foydalanadilar.

Quyidagi 2-rasmda turli iqtisodchilarning erkin iqtisodiy zonalarga bergan taʼriflarini jamlaganmiz.

Har bir hudud, taraqqiyotning har bir darajasida boʻlgan davlatlar erkin iqtisodiy zonalar bobida oʻziga xos jihatlarga ega. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlarda erkin iqtisodiy zonalar oʻziga xos belgilari quyidagilar:

- hudud chegaralari kengayish tendentsiyasiga ega, savdo-ishlab chiqarish faoliyati esa oʻsib borish tendentsiyasiga ega;
- xorijiy tadbirkorlar uchun erkin iqtisodiy hududlarda alohida boshqarish tartibi, iqtisodiyotni doimiy ravishda liberallasuvi xos;
- erkin iqtisodiy zonalar faoliyatida katta miqdorda sanoat-savdo diversifikatsiyasi, kompleks rivojlanish tendentsiyasi xos;
- yangi va yuqori texnologiyalar ishlab chiqish bilan bogʻliq boʻlgan ilm koʻp talab qiluvchi ishlab chiqarishni rivojlantirishga alohida eʼtiborning mavjudligi.
- erkin iqtisodiy zonalarda tashkil etilayotgan xoʻjalik yurituvchi subʼektlar uchun turli iqtisodiy imtiyozlar beriladi, masalan:
 - fiskal imtiyozlar. Bu asosan soliqlardan ozod qilish, soliqqa tortish bazasini kamaytirish, alohida soliq stavkasini pasaytirish, alohida olingan soliqlardan ozod etish shakli;
 - moliyaviy imtiyozlar. Bu asosan har xil subsidiyalar, kammunal xizmatlar taʼrifini (bahosini) pasaytirish yoki umuman toʻlmaslik, davlat kreditlaridan foydalanish boʻyicha foizlarni pasaytirish kabilar;
 - maʼmuriy imyozlar. Bu imtiyozlar xoʻjalik yurituvchi subʼektlarni davlat roʻyhatidan oʻtkazishning soddalashtirilgan shaklini qoʻllash, chet el fuqorolarini

mamlakatimizga kelib ketishi rejimini soddalashtirish, ularga har xil xizmatlar ko'rsatish bo'yicha yordam berish.

1970-1980 yillarda butun dunyoda xususan rivojlanayotgan mamlakatlarda eksport-ishlab chiqarish hududlari keng tarqala boshlandi. Ushbu holat import o'rnini bosa oladigan modelini faqat tashqi bozorga ixtisoslashgan tovarlarni ishlab chiqaradigan sohalarni rivojlantirish yo'li bilan eksportga mo'ljallangan modelga almashtirishning umumiy tendentsiyasini aks etadi. Janubiy-Sharqiy Osiyoda joylashgan yangi industrial mamlakatlarda tashkil qilingan bunday hududlarning ko'payishi sanoatda qayta ishlab chiqariluvchi mahsulotlarning keskin darajada o'sishiga va iqtisodiyotining ko'tarilishiga olib keldi. Bu hududlar ularning ko'pchiligiga dunyodagi eng katta eksportchi mamlakatlarga aylanishiga yordam berdi.

Erkin iqtisodiy zonani tashkil qilish, uni tashkilotchilari tomonidan ochiq iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshiruvchi muhim bo'g'in sifatida qarashadi. Erkin iqtisodiy zonada iqtisod tashqi dunyo bilan yuqori darajada aloqada bo'lish imkoniga ega, bojxona, soliq va investitsion rejimlar ichki hamda tashqi investitsiyalar uchun ijobiydir.

Mamlakat xorij investitsiyalariga butunlikcha yo'l ochib berishni istamagan holda yoki investitsiyalarni ma'lum bir sohaga yo'naltirish niyatida, mamlakatning ba'zi yerlarida erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. T.S. Malikov, O. Olimjonov. Moliya - O 'quv qo 'llanma. T.: "Iqtisod-moliya, 2012
2. T. Malikov, N. Xaydarov. Davlat byudjeti - T.: " Iqtisod-moliya, 2007
3. A.Ваҳобов, Т.Маликов. Молия: дарслик. - Т.: Ношир, 2011
4. T.Malikov, N.Haydarov - Budget daromadlari va xarajatlari. O 'quv qo 'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA, 2007
5. Т.С. Маликов, П.Т. Жалилов. Бюджет-солик сиёсати. - Тошкент: Академнашр, 2011
6. Malikov TS, Moliya HN. umumdavlat moliyasi./O 'quv qo 'llanma. Toshkent: "Iqtisod-moliya. 2009;556.
7. Т.Маликов, О.Олимжонов. Молиявий менежмент. - Т.: Академия, 1999
8. А.Ваҳобов, Т.Маликов. Молия: умумназарий масалалар - Ўқув қўлланма. Тошкент, "Iqtisod-moliya, 2008
9. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент: "Шарқ. 2010;804.
10. Yunusovich OR. Abduazimova Farzona Axmadqul qizi. Davlat maqsadli jamg'armalarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati. "Science and Education" Scientific Journal/ISSN. 2022 Jun:2181-0842.

11. Ўроқов, У. "Ғазначилик тизимида бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш масалалари." (2017).
12. Ўроқов, У. "Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари." (2017).
13. Urokov, Uchqun Yunusovich, and Zulayho Abdujobir Qizi Tursunova. "Actual issues in the management of external debt." *Science and Education* 3.12 (2022): 1023-1029.
14. Ўроқов У Ғайбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув кўлланма. Тошкент: Baktria press.–21 б, 2016
15. Ўроқов У. и др. Маҳаллий бюджетлар даромадларининг ўзига хос хусусиятлари манбаини оширишда инновatsion менежментни ривожлантириш//Центральноазиатский журнал образования и инновatsiй. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 5-8.
16. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишни такомиллаштириш йўллари: И. ф. н. илм. дар. ол. уч. ёз. дисс. Автор. 2020
17. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- *Science and Education*, 2023. Т4, №5, 1550-1564
18. Ўроқов, У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари.“. Молия тизимини ривожлантиришнинг замонавий тенденциялари ва истикболлари”. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022йил, 27.
19. Ўроқов, У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари.“. In *Худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожланишида молиянинг роли” мавзусидаги республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).*
20. Ўроқов, У. "Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари.«." (2017).
21. Ўроқов, У. "Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар.“." (2020).
22. Ўроқов, У. "Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий қарашлар.“." Ўзбекистоннинг халқаро молия тизимида интеграциялашувни кучайтириш йўллари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция. ТМИ. 2020.
23. Уроков, У. "Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи курсаткичлар."." Молия-кредит тизимининг иқтисодиётнинг реал сектори билан узаро муносабатларини институционал ривожлантириш" мавзусидаги халқаро (2020).
24. Ўроқов У. Ўзбекистон Республикасининг бюджет кодекси: моҳияти, аҳамияти ва афзалликлари.“. Молия” журнали. 2014.

25. Хайдаров Н. Давлат молиясини бошқариш. Т.: «Академия». 2005.
26. Хайдаров Н Т. Маликов-Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни. Ўқув қўлланма. 2007.
27. G‘aybullayev, U O‘roqov. O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. - T.: Baktriapress, 2016

